

O'zbekiston Respublikasida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi


2026-yil yanvar-iyun oylari uchun

- I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi
- II. O'zbekiston Respublikasi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida
- III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirish
- IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni
- V. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2026-yilning yanvar-iyun oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 28 663,1 mlrd so'mni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 26 631,1 mlrd so'mni, o'rmon xo'jaligi –1 930,0 mlrd so'mni, baliqchilik xo'jaligi – 101,9 mlrd so'mni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining o'sish sur'ati



II. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida

2026-yil yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Kattaqo'rg'on (2 548,2 mlrd so'm) va Payariq (2 498,0 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha, kam hajmga ega hududlarga Kattaqo'rg'on (77,9 mlrd so'm) va Samarqand (210,0 mlrd so'm) shaharlarini keltirib o'tish mumkin.

	Hajm mlrd so'm	O'sish sur'ati % da
Samarqand viloyati	28 663,1	104,5
Samarqand shahri.	210,0	81,4
Kattaqo'rg'on shahri	77,9	101,3
Oqdaryo tumani	1 578,8	105,4
Bulung'ur tumani	2 004,0	105,0
Jomboy tumani	2 462,9	105,6
Ishtixon tumani	1 820,6	103,3
Kattaqo'rg'on tumani	2 548,2	104,2
Qo'shrabot tumani	2 137,4	111,7
Narpay tumani	1 618,6	105,4
Payariq tumani	2 498,0	103,7
Patdarg'om tumani	2 400,5	103,8
Paxtachi tumani	1 253,4	104,2
Samarqand tumani	1 502,0	104,8
Nurobod tumani	1 905,3	104,5
Urgut tumani	2 481,5	102,9
Toyloq tumani	2 164,1	102,3

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati tahlil qilinganda, yuqori o'sish sur'atlari Qo'shrabot (111,7 %), Jomboy (105,6 %) Oqdaryo (105,4 %), Narpay (105,4 %) va Samarqand (104,8 %) tumanlarida qayd etildi.

Boshqa hududlarga nisbatan Samarqand (81,4 %), Kattaqo'rg'on (101,3 %), shaharlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish

2026-yilning yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 26 495,8 mlrd so'mni yoki 2025-yilning mos davriga nisbatan 104,1 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 11 666,2 mlrd so'mni (107,1 %), chorvachilik mahsulotlari 14 829,6 mlrd so'mni (101,5 %) tashkil qildi.


Hududlar kesimida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eng yuqori hajmi Urgut (2 466,5 mlrd so'm), Payariq (2 447,5 mlrd so'm), Pastdarg'om (2 256,3 mlrd so'm) va Kattaqo'rg'on (2 229,9 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Kattaqo'rg'on shahri (76,7 mlrd so'm), Samarqand shahri (170,3 mlrd so'm) va Paxtachi tumani (1 153,1 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Qo'shrabot (112,7 %), Jomboy (105,9 %) Narpay (105,3 %), Oqdaryo (105,2 %) va Bulung'ur (104,6 %) tumanlarida qayd etildi.

Boshqa hududlarga nisbatan Samarqand (77,1 %), Kattaqo'rg'on (104,2 %), shaharlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 69,1 % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 23,2 % fermer xo'jaliklariga, 7,7 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Chorvachilik mahsulotlari yetishtirish

Hududlar kesimida chorvachilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Kattaqo'rg'on (1 616,1 mlrd so'm), Pstdarg'om (1 572,1 mlrd so'm), Toyloq (1 483,5 mlrd so'm), Urgut (1 362,2 mlrd so'm) va Samarqand (1 149,2 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Kattaqo'rg'on shahri (60,8 mlrd so'm), Samarqand shahri (128,4 mlrd so'm) va Paxtachi tumani (637,3 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Samarqand shahar (116,8 %), Qo'shrabot (104,3 %), Oqdaryo (102,9 %), Payariq (102,5 %) tumanlarida qayd etildi.

Bulung'ur (100,2 %), Nurobod (100,3 %) va Urgut (100,4 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

2026-yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 156,4 ming tonna go'sht, 586,8 ming tonna sut, 774,1 mln dona tuxum, 1 971,4 tonna qirqib olingan jun, 14,5 ming dona qorako'l teri yetishtirildi va 4 064,7 tonna baliq ovlandi.

Hisobot davrida tirik vaznda yetishtirilgan go'sht hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 100,5 % ni, sog'ib olingan sut – 100,9 % ni, olingan tuxum – 121,6 % ni, olingan qorako'l teri – 87,8 % ni hamda ovlangan baliqlar – 117,9 % ni tashkil qildi.

2026-yil yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yetishtirilgan go'shtning umumiy hajmidan 18,4 % fermer xo'jaliklari hissasiga, 75,0 % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 6,6 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.

Shunga mos ravishda sog'ib olingan sutning 12,0 % fermer xo'jaliklari, 87,5 % dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 0,5 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.



**2026-yil yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi
chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliqlar**

	Yanvar-mart 2026-y.	O'sish sur'ati % da
Go'sht (tirik vaznda), ming tonna	156,4	100,5
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	28,8	107,1
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	117,3	99,6
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	10,3	94,9
Sut, ming tonna	586,8	100,9
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	70,4	107,5
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	513,2	100,0
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	3,2	111,4
Tuxum, mln dona	774,1	121,6
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	246,2	102,0
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	303,1	100,5
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	224,9	240,4
Jun, tonna	1 971,4	103,4
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	171,8	118,1
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1 681,5	104,0
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	118,1	81,9
Qorako'l teri, ming dona	14,5	87,8
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	0,4	71,7
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	4,3	90,8
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	9,7	87,3
Baliq, tonna	4 064,7	117,9
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	3 323,0	121,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	482,7	96,2
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	259,1	122,7

Shu bilan birga, olingan tuxumning 31,8 % fermer xo'jaliklariga, 39,2 % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 29,0 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

Shuningdek, qirqib olingan junning 8,7 % fermer xo'jaliklariga, 85,3 % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 6,0 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

Bundan tashqari, olingan qorako'l terining 3,0 % fermer xo'jaliklariga, 29,9 % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 67,1 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

O'z navbatida, ovlangan baliqlarning 81,8 % fermer xo'jaliklariga, 11,9 % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 6,4 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelganligini qayd etish lozim.

Hududlar kesimida yetishtirilgan asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari hajmi

	<i>Go'sht</i> <i>(tirik vaznda),</i> <i>tonna</i>	<i>Sut,</i> <i>tonna</i>	<i>Tuxum,</i> <i>ming dona</i>
Samarqand viloyati	156 377,9	586 812,8	774 078,9
Samarqand shahri	1 345,2	1 461,1	34 498,3
Kattaqo'rg'on shahri	752,2	2 013,3	484,5
Oqdaryo tumani	8 358,9	36 880,1	45 159,6
Bulung'ur tumani	10 654,4	41 008,9	38 170,0
Jomboy tumani	9 019,4	41 875,5	102 072,8
Ishtixon tumani	9 514,7	51 168,2	33 929,2
Kattaqo'rg'on tumani	17 489,5	65 815,2	24 900,7
Qo'shrabot tumani	8 221,6	35 175,3	32 096,7
Narpay tumani	5 353,3	44 273,5	19 154,6
Payariq tumani	7 389,7	47 327,3	43 836,8
Patdarg'om tumani	15 932,4	67 662,4	47 355,6
Paxtachi tumani	6 560,2	31 116,8	14 255,7
Samarqand tumani	12 191,5	18 509,3	244 428,8
Nurobod tumani	8 914,5	22 979,2	26 370,7
Urgut tumani	16 033,6	43 819,3	33 667,2
Toyloq tumani	18 647,2	35 727,4	33 697,7

Dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish

Hududlar kesimida dehqonchilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Payariq (1 636,3 mlrd so'm), Urgut (1 104,3 mlrd so'm), Nurobod (1 065,9 mlrd so'm), Jomboy (1 047,9 mlrd so'm) va Qo'shrabot (1 040,4 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Kattaqo'rg'on shahri (15,9 mlrd so'm), Samarqand shahri (42,0 mlrd so'm) va Samarqand tumani (298,5 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Qo'shrabot (119,4 %), Samarqand (111,8 %) tumanlari, Jomboy (109,7 %) va Narpay (109,3 %) tumanlarida qayd etildi.

Kattaqo'rg'on shahar (97,1 %), Samarqand shahar (40,5 %), Toyloq (102,5 %) va Ishtixon (103,5 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari nisbatan pastligi kuzatildi.

Hududlar kesimida yetishtirilgan sabzavotlar hajmi

	tonna	o'sish sur'ati, % da
Samarqand viloyati	643 884,5	105,6
Samarqand shahri.	968,1	98,0
Kattaqo'rg'on shahri	979,1	96,8
Oqdaryo tumani	5 241,1	112,0
Bulung'ur tumani	59 352,1	104,9
Jomboy tumani	87 142,5	109,8
Ishtixon tumani	66 643,0	100,4
Kattaqo'rg'on tumani	13 582,3	107,9
Qo'shrabot tumani	39 598,4	106,8
Narpay tumani	24 701,1	109,0
Payariq tumani	103 353,2	100,3
Patdarg'om tumani	10 134,2	105,8
Paxtachi tumani	38 281,7	101,8
Samarqand tumani	16 308,7	134,9
Nurobod tumani	127 805,6	104,1
Urgut tumani	18 753,9	113,4
Toyloq tumani	31 039,5	116,8

Yetishtirilgan sabzavot umumiy hajmining eng yuqori ulushi Nurobod tumani (36,9 %) hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, yuqori ulush Jomboy (22,9 %), Payariq (22,2 %), Ishtixon (20,6 %) tumanlarida qayd etildi. Past ko'rsatkichlar Pastdarg'om (2,4 %), Samarqand shahrida (3,0 %) kuzatildi.

2025-yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Samarqand tumani (134,9 %), Toyloq tumani (116,8 %), Urgut tumani (113,4 %), Oqdaryo tumani (112,0 %), Jomboy tumani (109,8 %), Narpay tumanida (109,0 %) qayd etildi.

IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni

2026-yilning 1-iyul holatiga barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 1 644,9 ming boshga yetdi, (2025-yilning 1-uyul holatiga nisbatan 0,3 % ga ko'p), sigirlar 614,1 ming boshga (0,5 % ga ko'p), qo'y va echkilar 2 482,5 ming boshga (0,1 % ga ko'p), parrandalar 17 183,0 ming boshga (15,2 % ga ko'p) yetdi.

**2026-yilning 1-iyul holatiga xo'jaliklar toifalari bo'yicha
chorva mollari va parrandalar bosh soni**

	Ming bosh	O'sish sur'ati
Yirik shoxli qoramollar	1 644,9	100,3
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	115,6	106,5
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1 519,7	100,0
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	9,5	87,4



shundan sigirlar	614,1	100,5
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	53,4	106,9
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	556,7	99,9
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	4,0	105,0
Qo'y va echkilar	2 482,5	100,0
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	276,4	108,4
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	2 045,9	99,9
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	160,2	88,4
Otlar	23,8	105,4
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	6,4	110,9
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	16,2	102,6
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1,1	118,8
Parrandalar	17 183,0	115,2
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	6 359,0	110,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	5 736,2	99,9
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	5 087,8	148,6

2026-yilning 1-iyul holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 7,0 % fermer xo'jaliklari hissasiga, 92,4 % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 0,6 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda sigirlarning umumiy sonidan 8,7 % fermer xo'jaliklariga, 90,6 % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 0,7 % ni qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, shuningdek, qo'y va echkilarning umumiy sonidan 11,1 % fermer xo'jaliklariga, 82,4 % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 6,5 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, parrandalar umumiy sonidan 37,0 % fermer xo'jaliklariga, 33,4 % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 29,6 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.



**2026-yilning 1-iyul holatiga hududlar kesimida
chorva mollari va parrandalar bosh soni**

	Yirik shoxli qoramollar	Qo'y va echkilar	Parrandalar
Samarqand viloyati	1 644,9	2 482,5	17183,0
Samarqand shahri.	6,1	7,6	299,5
Kattaqo'rg'on shahri	7,9	8,0	28,4
Oqdaryo tumani	93,7	51,0	1 861,1
Bulung'ur tumani	123,5	152,2	772,7
Jomboy tumani	94,1	126,5	1 361,4
Ishtixon tumani	121,4	84,1	865,9
Kattaqo'rg'on tumani	160,1	170,4	1 030,3
Qo'shrabot tumani	101,0	380,6	617,6
Narpay tumani	132,8	125,7	496,8
Payariq tumani	109,4	104,7	602,1
Patdarg'om tumani	213,0	178,3	1 795,8
Paxtachi tumani	88,2	177,9	335,2
Samarqand tumani	49,5	115,5	4 159,4
Nurobod tumani	84,3	637,5	486,1
Urgut tumani	159,8	100,9	549,5
Toyloq tumani	99,9	61,6	1 921,0

V. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarish hajmi

– sohada o'z iste'moli va sotish uchun yaratilgan mahsulot va xizmatlarning umumiy qiymati. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi dehqonchilik va chorvachilik mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi, ovchilik xo'jaligida, o'rmonchilik va yog'och tayyorlash, baliq ovlash va akvakultura sohasida yetishtirilgan mahsulot (xizmat)lar qiymati asosida shakllantiriladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari – hisobot davrida fermer xo'jaliklarida, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida hamda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo'jaligida mahsulot etishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

Fermer xo'jaligi – ijaraga berilgan er uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini etishtirish hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik sub'ektidir.

Dehqon xo'jaligi – meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish yoki ijara (ikkilamchi ijara) huquqi asosida dehqon xo'jaligi boshlig'iga berilgan er uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirishni va realizatsiya qilishni dehqon xo'jaligi a'zolarining mehnati asosida amalga oshiruvchi xo'jalikdir.

Tomorqa xo'jaligi – shaxsiy tomorqa er uchastkalarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ham erkin savdo uchun, ham oila ehtiyojlari uchun etishtirish (qayta ishlash) bilan bog'liq mehnat faoliyatidir.

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtiruvchi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo'jalik yuritish jarayonida erga hamda boshqa ishlab chiqarish mulklariga egalik qiluvchi yuridik shaxs huquqiga ega xo'jalik yurituvchi sub'ekt hisoblanadi.

Mollar bosh soni – xo'jalik toifalari bo'yicha barcha yosh guruhlaridagi asosiy turdagi chorva mollarini o'z ichiga oladi (yirik shoxli qoramollar, shu jumladan sigirlar, qo'y va echkilar, cho'chqalar va h.k.)

Go'sht yetishtirish – so'yish uchun sotilgan hamda o'z xo'jaligida so'yilgan barcha turdagi qishloq xo'jaligi hayvonlari va parrandalarning tirik vaznini o'z ichiga oladi.

Sut yetishtirish – yosh mollarga ichirish uchun sog'ib olingan sut va og'iz sutini qo'shgan holda, haqiqatda sog'ib olingan sigir, echki, qo'y, biya va tuya sutlari bilan aniqlanadi. Buzoqlar emgan sut yalpi sog'ib olishga kiritilmaydi.

Tuxum yetishtirish – barcha turdagi parrandalardan olingan hamda kurk tovuqlar bilan va inkubatorlarda jo'ja ochish uchun sarflangan tuxumlar miqdorini o'z ichiga oladi.

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/qishloq-xo-jaligi-va-ekologiya/685-qishloq-o-rmon-va-baliqchilik-xo-jaligi-mahsulot-xizmat-lari-yalpi-ishlab-chiqarishini-hisoblash-bo-yicha-uslubiy-nizom-2>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Qishloq xo'jaligi va ekologiya
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
F.Eshonqulov
66 235-22-01 (3111)

Manzil:
Samarqand shahar Ulug'
Tursunov ko'chasi 82 uy
